

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASINING  
QARORI**

**STATISTIKA HISOBOTINI ELEKTRON SHAKLDA TAQDIM ETISH TARTIBI TO'G'RISIDAGI NIZOMNI  
TASDIQLASH HAQIDA**

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 16-iyulda ro'yxatdan o'tkazildi,  
ro'yxat raqami 3312]**

O'zbekiston Respublikasi "Davlat statistikasi to'g'risida"gi [Qonuni](#) va Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-sentabrdagi 690-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi [qaroriga](#) muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi qaror qiladi:

1. Statistika hisobotini elektron shaklda taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizom [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2013-yil 24-iyundagi 3-mb-son "Elektron raqamli imzodan foydalangan holda elektron shaklda davlat statistika hisobotini taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi [qarori](#) (ro'yxat raqami 2479, 2013-yil 17-iyul) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 29-son, 380-modda);

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018-yil 26-sentabrdagi 5-mb-son "Elektron raqamli imzodan foydalangan holda elektron shaklda davlat statistika hisobotini taqdim etish tartibi to'g'risida nizomning 1-bandiga o'zgartirish kiritish haqida"gi [qarori](#) (ro'yxat raqami 2479-1, 2018-yil 8-oktabr) (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2018-y., 10/18/2479-1/2008-son).

3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Rais B. BEGALOV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 16-iyun,  
9-mb-son

Kelishildi:

**Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh. SADIKOV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 12-iyun

O'zbekiston Respublikasi Davlat  
statistika qo'mitasining 2021-yil 16-  
iyundagi 9-mb-son [qaroriga](#)  
ILOVA

**Statistika hisobotini elektron shaklda taqdim etish tartibi to'g'risidagi  
NIZOM**

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining "Davlat statistikasi to'g'risida"gi, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi va "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq Internet tarmog'i orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda elektron shaklda statistika hisobotini (bundan buyon matnda statistika hisoboti deb yuritiladi) taqdim etish tartibini belgilaydi.

**1-bob. Umumiyy qoidalar**

1. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

**statistika hisoboti** — O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan shakl, tartib va muddatlarda respondentlar tomonidan birlamchi ma'lumotlar asosida shakllantiriladigan va bepul taqdim etiladigan statistik ma'lumotlar;

**respondent** — statistika hisobotini taqdim etuvchi yuridik shaxs yoki statistika hisoboti alohida taqdim etilgan taqdirda, uning alohida bo'linmalari, vakolatxonalari va filiallari;

**statistika hisobotini elektron shaklda yig'ish axborot tizimi** (bundan buyon matnda axborot tizimi deb yuritiladi) — statistika hisobotini Internet tarmog'i orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda elektron shaklda taqdim etish va qayta ishlashni ta'minlovchi axborot tizimi;

**elektron namuna** — ko'rsatkichlar tavşifini, birlamchi statistik ma'lumotlarni tekshirish qismlarini, zarur me'yoriy-axborot ma'lumotlarini o'z ichiga olgan axborot tizimining bir qismi bo'lgan statistika hisobotining elektron shakli;

**elektron raqamli imzo** — elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo;

**elektron hujjat** — elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan hamda elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo'lgan axborot;

**statistika hisoboti kelib tushganligi haqida xabarnoma** (bundan buyon matnda Xabarnoma deb yuritiladi) — statistika hisobotining axborot tizimiga kelib tushgan sanasi va statistika organi tomonidan uni ko'rib chiqish natijasini respondentga ma'lum qilish muddati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, axborot tizimi tomonidan avtomatik tarzda shakllantiriluvchi xabar;

**statistika hisobotini taqdim etish tartibi buzilganligi haqida ko'rsatma** (bundan buyon matnda Ko'rsatma deb yuritiladi) — hisobot va boshqa ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotini taqdim etish tartibini buzish, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatish yoki hisobotni taqdim etish muddatini buzish holatlari aniqlanganda mazkur kamchiliklarni bartaraf etish muddati haqida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, axborot tizimi tomonidan avtomatik tarzda shakllantiriluvchi xabar;

**statistika hisoboti qabul qilinganligi haqida ma'lumotnoma** (bundan buyon matnda Ma'lumotnoma deb yuritiladi) — statistika organi tomonidan statistika hisobotining qabul qilinganligini tasdiqlovchi, sanasi va qabul qilgan xodimning familiyasi ko'rsatilgan, uning elektron raqamli imzosi bilan imzolangan va respondentga yuboriladigan elektron xabar;

**qayta ishlash davri** — taqdim etilgan statistika hisobotini tahlil qilish va umumlashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan belgilangan vaqt oralig'i. Qayta ishlash davri tegishli yig'ma statistika ma'lumotlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan yillik statistika ishlari dasturida belgilangan tarqatish muddatidan oshmasligi kerak.

2. Statistika hisoboti quyidagi respondentlar tomonidan taqdim etiladi:

faoliyat yuritayotgan respondentlar (faoliyat ko'rsatmayotgan va harakatsiz holatga o'tkazilganlardan tashqari);

yangi tashkil etilgan respondentlar birinchi marotaba, belgilangan statistika hisobotining navbatdagi davridan boshlab;

faoliyati tugatilgan respondentlar faoliyat yuritgan hisobot davri uchun, o'z faoliyatini tugatish vaqtida.

3. Statistika organlari tomonidan statistika hisobotini taqdim etishning belgilangan davriyligidan ko'proq davriylilikda talab qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

4. Elektron shakldagi statistika hisoboti qog'oz hujjatga tenglashtiriladi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega hamda belgilangan tartibda elektron arxivda saqlanishi lozim.

Elektron shakldagi statistika hisobotining saqlanish muddati, qog'oz shaklidagi statistika hisobotlari uchun belgilangan muddatdan kam bo'lmasligi kerak.

5. Zaruriyatga ko'ra, statistika organi tomonidan elektron statistika hisobotining qog'oz shakldagi nusxasi tayyorlanishi mumkin, nusxada tegishli rekvizitlar, tayyorlangan vaqt va sanasi ko'rsatiladi. Elektron statistika hisobotining qog'oz shaklidagi nusxasi uni tayyorlagan statistika organi rahbari tomonidan imzolanadi.

6. Respondentlar axborot tizimidan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining elektron interaktiv xizmatlar portalida ([my.stat.uz](http://my.stat.uz)) avtomatik tarzda yaratilgan shaxsiy kabineti orqali bepul foydalanadi.

7. Statistika hisoboti shakliga belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasini tegishli elektron namunaga zarur o'zgartirishlarni kiritib, o'zining rasmiy sayti orqali respondentni o'zgartirishlar to'g'risida xabardor qiladi.

## **2-bob. Statistika hisobotini elektron shaklda taqdim etish**

8. Statistika hisobotini elektron shaklda taqdim etish uchun respondent:

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining elektron interaktiv xizmatlar portalı ([my.stat.uz](http://my.stat.uz)) orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda axborot tizimidagi shaxsiy kabinetiga kiradi;

tegishli statistika hisoboti shaklini taqdim etish davriyligi va belgilangan muddatidan kechiktirmay elektron statistika hisobotini shakllantiradi va Davlat statistika qo'mitasiga axborot tizimi orqali jo'natadi.

Statistika hisobotini taqdim etish muddatining so'nggi kuni dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelsa, undan keyin keladigan birinchi ish kuni muddat tugaydigan kun deb hisoblanadi.

9. Elektron shaklda taqdim etilgan statistika hisoboti, ishonchli ma'lumotlar asosida to'liq to'ldirilgan va hisobot ma'lumotlarining mantiqiy tekshirish natijasida aniqlangan kamchiliklar to'liq bartaraf etilgan bo'lishi kerak.

Elektron namunaning har bir katakchasiagi ko'rsatkich statistika hisoboti namunasida yoki unga ilova qilingan ro'yxatda (nomenklatura, tasniflagich) keltirilgan o'Ichov birliklariga muvofiq ko'rsatiladi.

Tegishli katakchada:

ko'rsatkich yo'q bo'lgan holda bo'sh qoldiriladi;

ko'rsatkich qiymati belgilangan o'Ichov birligidan kam bo'lgan holda verguldan keyingi qiymat to'liq aniqlikda yozib qo'yiladi.

10. Statistika hisobotida quyidagi majburiy rekvizitlar ko'rsatilgan bo'lishi shart:

respondentning nomi va identifikatsion kodlari (soliq to'lovchining identifikatsiya raqami — STIR, korxona, tashkilotning asosiy kodi — KTUT);

respondentning elektron va pochta manzili;

respondent bilan aloqa qilish uchun shahar telefon va mobil telefon raqami;

hujjat yaratilgan sana;

uni tuzishga mas'ul bo'lgan mansabdar shaxslar to'g'risida ma'lumotlar;

respondentning elektron raqamli imzosi.

Mazkur rekvizitlarda o'zgarishlar bo'lganda, respondent tomonidan ular yangilanishi zarur.

11. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'miasi huzuridagi ro'yxatga olish markazi yoki O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi tomonidan berilgan respondentning elektron raqamli imzosi bilan imzolangan va o'zida majburiy rekvizitlarni to'liq aks ettirgan elektron shakldagi statistika hisoboti respondentdan chiquvchi hujjat deb hisoblanadi.

## **3-bob. Statistika hisobotini taqdim etishda elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi**

12. Respondentdan elektron statistika hisobotini qabul qilishda, axborot tizimi uning elektron manzilini avtomatik ravishda ro'yxatdan o'tkazadi. Axborot tizimi tomonidan elektron manzilning ro'yxatdan o'tkazilishi, respondent uchun statistika hisobotini faqat elektron shaklda taqdim etish majburiyatini bermaydi.

13. Statistika hisobotini yuborgandan so'ng respondent uning axborot tizimiga kelib tushganligi va uni ko'rib chiqish muddati to'g'risida axborot tizimi orqali avtomatik tarzda

shakllantirilgan elektron Xabarnomani oladi, ushu Xabarnoma hisobotning statistika organi tomonidan qabul qilinganligini tasdiqlamaydi.

Xabarnomadagi statistika hisobotini ko'rib chiqish muddati, uni qayta ishlash davrini hisobga olgan holda belgilanadi.

14. Xabarnomada ko'rsatilgan vaqtadan kechiktirmay, respondent axborot tizimidagi o'zining shaxsiy kabineti orqali quyidagi elektron hujjatlardan birini oladi:

Ma'lumotnomani — agar qayta ishlash uchun kelib tushgan statistika hisobotida ma'lumotlarni taqdim etmaslikda ifodalangan statistika hisobotini taqdim etish tartibini buzish, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatish yoki hisobotni taqdim etish muddatini buzish holatlari aniqlanmaganda;

Ko'rsatmani — agar statistika hisobotini taqdim etish tartibini buzish, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatish yoki hisobotni taqdim etish muddatini buzish holatlari aniqlanganda. Bunda ko'rsatma barcha xato va nomuvofiqliklar ro'yxatini, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalarni, shuningdek to'g'rilangan ma'lumotlarni taqdim etish muddati, aniqlangan qoidabuzilishlarning o'z vaqtida bartaraf etilmasligi respondentga nisbatan ma'muriy choralar ko'rinishiga sabab bo'lisi mumkinligi to'g'risida ogohlantirishni va qayta ishlashni o'tkazgan xodimning elektron raqamli imzosini o'z ichiga olishi lozim.

Axborot tizimi tomonidan yuboriladigan xabarlar respondentning shaxsiy kabineti bilan bir qatorda, uning elektron pochta manzili, mobil telefon raqamiga SMS-xabar orqali yoki aloqaning boshqa vositalari yordamida yuborilishi mumkin.

15. Agar respondent, joriy hisobot davri uchun statistika hisobotini yuborgandan so'ng, undagi xatolar va nomuvofiqliklarni mustaqil aniqlasa, u statistika organlariga to'g'rilangan hisobotni tushuntirishlar bilan yuboradi.

Qayta ishlash davri o'tguniga qadar respondent tomonidan to'g'rilangan hisobotning qayta yuborilishi statistika hisobotini taqdim etish tartibini buzish hisoblanmaydi, hisobot mazkur Nizomda belgilangan tartibda statistika organlari tomonidan qabul qilinadi va qayta ishlanadi.

16. Respondent tomonidan mustaqil to'g'rilangan hisobotning O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan belgilangan qayta ishlash davridan kechikib qayta yuborilishi statistika hisobotini taqdim etish tartibini buzish hisoblanadi va qonunchilik hujjatlariga muvofiq mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralar qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

17. Statistika organi xodimi, joriy hisobot davri uchun respondentdan elektron shakldagi statistika hisobotini qabul qilganda:

Xabarnomada belgilangan muddatdan kechiktirmay uni ko'rib chiqishni ta'minlashi;

statistika hisobotini ko'rib chiqish tugaganidan so'ng bir soatdan kechiktirmay, respondentga elektron raqamli imzo bilan imzolangan Ma'lumotnomasi yoki Ko'rsatmani yuborishi.

18. Ko'rsatmadagi ma'lumotlarni to'g'rilib taqdim etish muddati, amaldagi qonunchilik va qayta ishlash davrini hisobga olgan holda belgilanadi.

19. Respondent topshirilgan hisobotni ko'rib chiqish natijalari haqida Ma'lumotni axborot tizimidagi shaxsiy kabineti orqali olishi va ma'lumotni o'qiganligi haqida munosabat bildirishi mumkin.

20. Respondent Ko'rsatmani olgandan so'ng, Ko'rsatmada belgilangan muddatda statistika hisobotini to'g'rilib, uni statistika organiga qaytadan yuboradi. Bunda Ko'rsatmada belgilanadigan muddat respondent tomonidan statistika hisobotini to'g'rilib, uni statistika organiga qaytadan yuborish uchun mutanosib ravishda belgilanishi lozim.

Agar joriy hisobot davri uchun to'g'rilangan statistika hisoboti Ko'rsatmada belgilangan muddatda taqdim etilgan bo'lsa, hisobotlarni taqdim etish muddatlarini buzganlik uchun belgilangan ma'muriy jazo choralar qo'llanilmaydi.

21. Agar joriy hisobot to'g'ri bo'lib, joriy statistika hisobotidagi nomuvofiqliklar ilgari yo'il qo'yilgan xatolar va buzib ko'rsatishlar (o'tgan hisobot davrlarida) bilan bog'liq bo'lganligi uchun respondent tomonidan uni to'g'rinish mumkin bo'lmasa, bu holda respondent Ko'rsatmada belgilangan muddatdan kechiktirmay:

nomuvofiqliklar sabablariga izoh bergen holda, joriy hisobotni statistika organiga qayta yuboradi;

o'tgan hisobot davrlari uchun to'g'rilangan statistika hisobotini statistika organiga taqdim etadi (elektron yoki qog'oz shaklida).

22. Nomuvofiqliklar sabablariga izoh berilgan holda yuborilgan joriy hisobotni respondentdan olganda, statistika organi:

  joriy statistika hisobotini qabul qiladi va respondentga Ma'lumotnoma yuboradi;

  respondentdan buzib ko'rsatishlar yo'l qo'yilgan barcha o'tgan davrlar uchun to'g'rilangan statistika hisobotini qabul qiladi va ularga nisbatan tegishli qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda ma'muriy javobgarlik choralarini ko'rish masalasini hal etadi;

  qonunchilik hujjalarda belgilangan tartibda yig'ma davlat statistika ma'lumotlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha zarur harakatlarni amalga oshiradi.

23. Respondentda Ma'lumotnoma mavjud bo'lgan taqdirda, statistika hisoboti qabul qilingan deb hisoblanadi. Ma'lumotnomada ko'rsatilgan vaqt va sana statistika hisoboti qabul qilingan muddat bo'lib hisoblanadi.

24. Texnik sabablarga ko'ra, mazkur Nizomda belgilangan muddatlarda Xabarnoma yoki Ma'lumotnomani olmagan respondent, ushbu holat bo'yicha o'zi ro'yxatdan o'tgan joydagি statistika organiga xabar (elektron pochta orqali, telefonda yoki shaxsan) beradi.

25. Statistika organi xabarni olgandan so'ng, respondent bilan birgalikda, bir ish kunidan oshmagan muddatda mazkur holatning kelib chiqish sabablarini aniqlash va uni bartaraf etish bo'yicha zarur harakatlarni amalga oshirishi zarur.

#### **4-bob. Yakuniy qoidalar**

26. Elektron shakldagi statistika hisobotini qabul qiluvchi statistika organlari xodimlari ularning o'z vaqtida qayta ishlanishi va olingan ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlagan holda ulardan kelgusida faqat statistika maqsadlarida foydalanilishi uchun shaxsan javobgardirlar.

27. Statistika organlari xodimlari statistika hisobotining respondentning elektron raqamli imzosi bilan noqonuniy imzolanishi uchun javobgar bo'lmaydilar.

28. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjalarda muvofiq javobgarlikka tortiladi.

29. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan kelishilgan.

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.07.2021-y, 10/21/3312/0684-son)*